



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 39 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeve Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	



O'ZBEKISTONDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI INSTITUTIONALLASHTIRISH: NFIS, FINLIT.UZ VA TA'LIM ISLOHOTLARI

Irgashev Anvar Farxodovich

Tashkent international university

Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholining moliyaviy savodxonligini moliyaviy siyosat vositalari orqali oshirish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Metodologik yondashuv sifatida milliy hujjatlar, xalqaro me'yorlar (OECD/INFE) va sohasiy statistika (Global Findex, IFC) tahlil qilingan. Natijalar O'zbekistonda NFIS (2021–2023), maktab va oliy ta'lim muassasalarida fan sifatida joriy etish, Finlit.uz platformasi, shuningdek raqamli moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish kabi tashabbuslarning ahamiyatini ko'rsatib bergan. Muhokama jarayonida davlatning koordinatorlik roli, manzilli guruhlar (bolalar, yoshlar, ayollar, qishloq aholisi, keksalar) uchun moslashtirilgan o'qitish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va KPI asosida baholash zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, moliyaviy siyosat, moliyaviy inkluziya, milliy strategiya (NFIS), raqamli moliyaviy savodxonlik, OECD/INFE, Global Findex, ta'limga integratsiya, iste'molchilar huquqlari, monitoring va baholash (KPI), manzilli o'qitish.

Abstract: This article examines how financial policy instruments can raise population-level financial literacy, presented in an IMRAD structure. The methodology combines a review of national policies, international guidelines (OECD/INFE), and sector statistics (Global Findex, IFC). Findings highlight Uzbekistan's key initiatives—NFIS (2021–2023), introducing a dedicated subject in schools and universities, the Finlit.uz platform, and the expansion of digital financial literacy. The discussion underscores the state's coordinating role, tailored delivery for target groups (children, youth, women, rural residents, older adults), consumer protection, and the need for KPI-based monitoring.

Key words: financial literacy, financial policy, financial inclusion, national strategy (NFIS), digital financial literacy, OECD/INFE, Global Findex, education integration, consumer protection, monitoring and evaluation (KPI), targeted delivery.

Аннотация: Статья исследует возможности повышения финансовой грамотности населения через инструменты финансовой политики в формате IMRAD. Методологически использованы анализ национальных документов, международных ориентиров (OECD/INFE) и отраслевой статистики (Global Findex, IFC). Результаты показывают значимость инициатив Узбекистана: NFIS (2021–2023), введение предмета в школы и вузы, развитие платформы Finlit.uz и цифровой финансовой грамотности. В обсуждении обоснована координирующая роль государства, адаптация программ для целевых групп (дети, молодёжь, женщины, сельское население, пожилые), защита прав потребителей и необходимость KPI-мониторинга.

Ключевые слова: финансовая грамотность, финансовая политика, финансовая инклюзия, национальная стратегия (NFIS), цифровая финансовая грамотность, OECD/INFE, Global Findex, интеграция в образование, защита прав потребителей, мониторинг и оценка (KPI), адресное обучение.

KIRISH

Moliyaviy savodxonlik – bu moliyaviy farovonlikka erishish va xatarlarni boshqarish maqsadida oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan bazaviy bilim, ko'nikma va mahoratlar majmuidir. Boshqacha aytganda, moliyaviy savodli inson shaxsiy (oilaviy) budjetni rejalashtira oladi, daromadlardan oqilona foydalanadi, zaxira (jamg'arma) shakllantiradi, qarz vositalaridan mas'uliyat bilan foydalanadi va mavjud moliyaviy xizmatlar orasida to'g'ri yo'l topa oladi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish so'nggi o'n yilliklarda jahon mamlakatlari iqtisodiy siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi. Ayniqsa, 2008-yilgi global inqiroz aholining keng qatlamlari bazaviy moliyaviy bilimlarga yetarlicha ega emasligining oqibatlarini yaqqol namoyon qilganidan so'ng, bu masala yanada dolzarb bo'ldi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab davlatlarda aholining katta qismi asosiy moliyaviy mahsulotlar va ularga xos xatarlar xususida yetarlicha tasavvurga ega emas. Ekspertlar baholashicha, G20 mamlakatlari aholisining katta qismi asosiy moliyaviy instrumentlarni yaxshi bilmaydi, OESR mamlakatlari



aholisining 56,8%i moliyaviy savodxonlik so'rovlarida minimal darajada ball to'plagan. Bu holat shuni anglatadiki, past moliyaviy savodxonlik darajasi uy xo'jaliklari farovonligining o'sishiga va mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'ladi.

Qayd etish lozimki, moliyaviy savodxonlik mikro va makro darajada yuzaga chiqadi. Aholining shaxsiy moliyaviy mablag'lariga nisbatan noto'g'ri qarorlar qabul qilinishi, ya'ni ortiqcha qarzdorlik yoki nafaqa uchun zaxiralarning yetishmasligi, firibgarliklarga aldanish kabi holatlar moliyaviy savodxonlikning mikro darajasiga xosdir. Aholining moliya bozorlari to'g'risida bilimlarining yetishmasligi yoki moliyaviy madaniyatning pastligi, ya'ni kredit va investitsiya xatarlaridan o'zini himoya qila olmasligi esa makro darajaga tegishlidir.

Bizga ma'lumki, rivojlangan mamlakatlarda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan turli o'quv kurslari tashkil etiladi, seminar va treninglar o'tkaziladi. Bu holat iqtisodiy xavfsizlikning ajralmas sharti sifatida belgilab qo'yilgan. AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya hamda moliyaviy savodxonlik darajasi yuqori bo'lgan boshqa bir qator davlatlar moliyaviy savodxonlikni oshirishni rasman davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olgan. Bugungi kunda qariyb butun dunyo bo'ylab o'nlab mamlakatlarda moliyaviy ta'limning milliy dasturlari amalga oshirilmoqda. Bu dasturlar rivojlangan iqtisodiyotlardan tortib rivojlanayotgan bozorlarga qamrab olmoqda.

Moliyaviy savodxonlikni oshirish barcha mamlakatlarda dolzarb masalalardan biri bo'lgani kabi, O'zbekiston Respublikasi uchun ham eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida mamlakatda zamonaviy moliyaviy tizim shakllandi, biroq aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi va ular haqidagi bilimlari hanuz yetarli emas. An'anaviy ravishda o'zbeklar moliyaviy vositalardan kamroq foydalanib, jamg'armalarni "qulf"da saqlash yoki moddiy boyliklarga (qoramol, oltin, valyuta) yo'naltirishni afzal ko'radi. Masalan, so'rovlarga ko'ra, aholining 78% ga yaqini pulni uyda naqd saqlaydi, taxminan 10% atrofida respondentlar esa bankda pul jamg'aradi. Moliyaviy institutlarga ishonch an'anaviy tarzda past bo'lib qolmoqda, ayniqsa qishloq joylarda. Qishloq aholisining atigi 27% ida bank hisobi mavjud bo'lsa, shaharlarda bu ko'rsatkich 43% atrofida. Zamonaviy moliyaviy mahsulotlar haqidagi bilimlar va ulardan foydalanish ko'nikmalari yetishmasligi fuqarolarning iqtisodiy faolligini va kredit-investitsiya resurslariga kirishini cheklab qo'ymoqda.

Bu muammolarni hal etish maqsadida O'zbekistonda oxirgi yillarda aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan moliyaviy siyosat vositalaridan samarali foydalanilmoqda. Bunda milliy strategiyalar, ta'lim islohotlari va raqamli axborot-ma'rifiy platformalardan faol foydalanilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A. Atkinson va F. Messy "Measuring Financial Literacy: Results of the OECD" asarida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OECD) rahbarligi ostida faoliyat yuritayotgan Moliyaviy ta'lim bo'yicha xalqaro tarmoq (INFE) tomonidan 14 ta mamlakatda moliyaviy savodxonlik darajasini baholash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili keltirilgan. Tahlil mamlakatlardagi moliyaviy bilimlar, moliyaviy munosabatlar va moliyaviy hulq-atvor mezonlari asosida olib borilgan. Tadqiqot natijalari davlatlararo hamda davlatlarning o'zidagi ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar asosida qiyoslangan.¹

A. Lusardi, O. Mitchell va V. Kurto moliyaviy ta'lim hamda aholining turli guruhlar uchun moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlaydi. Ular, ayniqsa, keksalar va yoshlar uchun mo'ljallangan, dalillarga asoslangan target dasturlarni ishlab chiqish zarurligini ilgari suradi. Tadqiqotchilar pensiyani rejalashtirish, qarz olish va jamg'arma bo'yicha qarorlar qabul qilishda moliyaviy savodxonlik hal qiluvchi omil ekanini alohida qayd etadi.²

G. Ciemleja, N. Lace va J. Titko "Moliyaviy savodxonlikni amaliy baholash yo'lida: Latviya tadqiqoti" asarida Latviya pilot tadqiqoti moliyaviy savodxonlikni milliy strategiyani ishlab chiqishdagi birinchi qadam sifatida belgilaydi va uni o'lchash uchun tushuncha, tarkibiy komponentlar hamda to'g'ri instrumentlar zarurligini asoslaydi. Tadqiqot doirasida 169 nafar respondent ishtirokida 12 savoldan iborat anketaning piloti o'tkazilgan bo'lib, savollarning mazmuni, tuzilishi, soddaligi va ahamiyati baholangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, "sarf-xarajat", "onlayn-banking", "kredit", "to'lov kartalari" va "depozit" mavzulari eng tushunarli hamda muhim hisoblangan, "aksiyalar-obligatsiyalar" va "diversifikatsiya" esa eng qiyin mavzular deb topilgan. Shuningdek, katta yosh guruhida tushunish darajasi pastroq bo'lib, ular uchun "sarf" mavzusi eng oson va eng muhim deb baholangan.³

UNDP-NABARD (Hindiston) tomonidan tayyorlangan "Moliyaviy savodxonlik moliyaviy inklyuzivlik va mijozlarni himoya qilish vositasi sifatida" nomli tadqiqotlar to'plamida moliyaviy savodxonlikning inklyuziya

1 Atkinson A. and F. Messy. Measuring Financial Literacy: Results of the OECD // International Network on Financial Education (INFE) Pilot Study, OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions. 2012. № 15. OECD Publishing. URL: <http://dx.doi.org/10.1787/5k9cfs90fr4-en>

2 Lusardi, Mitchell & Curto Financial Literacy and Financial Sophistication among Older Americans // Journal of Pension Economics and Finance. 2010. 9(3), 313–328.

3 Procedia-Social and Behavioral Sciences, 2014.



bilan uyg'unlashuvi natijasida samaradorlik yuqori bo'lishi ta'kidlangan. Unda faqat inklyuziya yoki faqat savodxonlikning o'zi yetarli emasligi qayd etilib, keng qamrovli ommaviy yondashuv zarurligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, SHG/NABARD platformalaridan foydalanish, bosqichma-bosqich o'qitish, o'quv dasturlariga ICT elementlarini kiritish va yagona o'quv kurslarini joriy etish ehtiyoji alohida ko'rsatib o'tilgan⁴.

ASIC (Avstraliya) tomonidan ishlab chiqilgan "Milliy moliyaviy savodxonlik strategiyasi" va MoneySmart Teaching strategiyasi beshta asosiy ustunga qurilgan: tayanch ta'lim, ishonchli mustaqil axborot vositalari, xulq-atvorni yaxshilaydigan yechimlar, sektorlararo hamkorlik va ta'sirni o'lchash hamda eng yaxshi amaliyot. Ushbu strategiyada o'qituvchilar uchun MoneySmart Teaching portali orqali moliyaviy savodxonlikni o'quv dasturlariga integratsiya qilish qo'llab-quvvatlanishi alohida ko'rsatib o'tilgan⁵.

V.Yu. Argyshenko, P.E. Kiryuxov, R.A. Kokorev va boshqalar — "Основы финансовой грамотности и методы её преподавания" nomli o'quv qo'llanmada moliyaviy savodxonlikni turli ta'lim bosqichlariga joriy etish bo'yicha yo'l-yo'riqlar belgilab berilgan⁶.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada qiyosiy tahlil, statistik tahlil va iqtisodiy modellash usullari qo'llanilgan. Manbalar sifatida O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, milliy dasturlar va strategiyalar (Prezident farmonlari, moliyaviy inklyuziya strategiyasi va boshqalar), shuningdek xalqaro standartlar va tavsiyalar (OESR, Jahon banki materiallari, boshqa mamlakatlar dasturlari)dan foydalanilgan. O'zbekiston aholisining moliyaviy inklyuziyasi ko'rsatkichlari Global Findex va IFC tadqiqoti natijalari asosida o'rganilgan. Jahon tajribasini tahlil qilishda qator davlatlardagi milliy moliyaviy savodxonlik dasturlari (AQSH, Buyuk Britaniya, Yevropa Ittifoqi, Rossiya va boshqalar) haqidagi hisobotlar, nashrlar, akademik maqolalar va rasmiy sharhlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon amaliyotida moliyaviy savodxonlikni oshirishning turli strategiyalari shakllangan bo'lib, mamlakatlarda moliyaviy ta'limning institutsionallashuv darajasi va qamroviga ko'ra ular shartli ravishda uch guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga ancha vaqtdan buyon muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan davlatlar kiradi (AQSH, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Singapur, Yangi Zelandiya). Ikkinchi guruhni yaqinda kun tartibiga qo'ygan va dastlabki choralarni joriy etayotgan mamlakatlar tashkil etadi (Italiya, Niderlandiya, Avstriya, Polsha, Chexiya, Hindiston, Rossiya). Uchinchi guruh esa hali keng ko'lamli dasturlarga ega bo'lmagan, biroq ularni ishlab chiqishni rejalashtirayotgan ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlardan iborat.

Mamlakatlarda moliyaviy savodxonlikni amalga oshirish uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular moliyaviy siyosat orqali boshqariladi. Bunday dasturlar odatda moliya vazirligi yoki markaziy bank tomonidan tayyorlanadi va uzoq muddatli yo'nalishlarni belgilab beradi (1-jadval).

1-jadval. Mamlakatlarda moliyaviy savodxonlikni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar

mamlakatlar	Strategiyalarning maqsadi
Rossiya Federatsiyasi	2017–2023-yillarga mo'ljallangan strategiya va 2023-yilda 2030-yilgacha yangi strategiya ishlab chiqildi. Ularda moliyaviy savodxonlik ta'rifi, maqsad ko'rsatkichlari va uni maktabdan tortib kattalar malaka oshirishgacha barcha darajalarda joriy etish choralari belgilangan.
AQSH	2002-yilda moliya vazirligi huzurida maxsus moliyaviy ta'lim boshqarmasi tashkil etilgan.
Avstraliya	2004–2005-yillarda aholi moliyani boshqarishni o'rgatish dasturlarini moliyalashtiruvchi davlat fondini tuzdi
Yevropa Ittifoqi	2005–2010-yillarga mo'ljallangan moliyaviy xizmatlar siyosatini amalga oshirish doirasida moliyaviy savodxonlik mavzusini o'quv dasturlariga kiritishni tavsiya etilgan.
Buyuk Britaniya	5 yilga mo'ljallangan, 10 mln kishini qamrab olishga qaratilgan yirik dasturni amalga oshirdi. Uning maqsadi – fuqarolarni oqilona moliyaviy qarorlar uchun zarur axborot va ko'nikmalar bilan ta'minlash. Natijada, maktablarda pul boshqaruvi darslarining joriy etilishi, moliyaviy savodxonlikni qo'shimcha ta'limga integratsiya qilish, talabalar uchun onlayn maslahat resurslari, ta'lim va mehnatdan chetda qolgan yoshlar uchun maxsus treninglar, ota-onalar uchun oila byudjeti bo'yicha veb-saytlar; ish joylarida moliyaviy farovonlik seminarlar tashkil etilmoqda.

4 UNDP India compilation report, 2012.

5 ASIC National Financial Literacy Strategy (2011/updated).

6 V.Yu. Argyshenko, P.E. Kiryuxov, R.A. Kokorev va boshq. "Основы финансовой грамотности и методы её преподавания". O'quv qo'llanma, 2020.



Buyuk Britaniya	5 yilga mo'ljallangan, 10 mln kishini qamrab olishga qaratilgan yirik dasturni amalga oshirdi. Uning maqsadi – fuqarolarni oqilona moliyaviy qarorlar uchun zarur axborot va ko'nikmalar bilan ta'minlash. Natijada, maktablarda pul boshqaruvi darslarini joriy etish, moliyaviy savodxonlikni qo'shimcha ta'limga integratsiya qilish, talabalar uchun onlayn maslahat resurslari, ta'lim va mehnatdan chetda qolgan yoshlar uchun maxsus treninglar, ota-onalar uchun oila byudjeti bo'yicha veb-saytlar, ish joylarida moliyaviy farovonlik seminarlar tashkil etilmoqda.
Malayziya	2001-yildan Moliyaviy sektorni rivojlantirish milliy rejasini amalga oshirdi. Natijada, moliyaviy ta'lim infratuzilmasi, aholiga maslahat xizmatlari, favqulodda vaziyatlarda yordam mexanizmlari tashkil etildi.

Xalqaro tajribaga ko'ra, moliyaviy ta'lim dasturlari umumdavlat, ijtimoiy, korporativ va xalqaro turlarga ajratiladi. Bunda xalqaro tashkilotlarning o'rni muhimdir. OESR 2008-yilda INFE – Xalqaro moliyaviy ta'lim tarmog'ini tashkil etib, milliy strategiyalar uchun tamoyil va tavsiyalar ishlab chiqdi hamda mamlakatlar kesimida qiyosiy o'lchashlarni boshladi. G20 moliyaviy inklyuziya va savodxonlikni global rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida qo'llab-quvvatlamogda. Jahon banki va mintaqaviy rivojlanish banklari ko'plab mamlakatlarda moliyaviy ma'rifat loyihalarini moliyalashtirmogda. Masalan, Hindistonning yetti shtatida BMTTD moliyaviy savodxonlikni kambag'al qatlamlarning moliyaviy xizmatlarga kirishini kengaytirish vositasi sifatida joriy etgan. Demak, moliyaviy savodxonlik moliyaviy inklyuziya va mijozlar huquqlarini himoya qilishning zarur sharti hisoblanadi.

Bundan tashqari, qator mamlakatlarda moliyaviy savodxonlik milliy o'quv standartlariga kiritilganligi ham bu sohaga alohida e'tibor qaratilayotganini ko'rsatadi. AQSH misolida buni ko'rish mumkin: 2020-yilda faqat sakkizta shtat shaxsiy moliya bo'yicha majburiy kursni talab qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 35 ta shtat attestat olish uchun moliyaviy savodxonlik kursini majburiy etib belgilagan. Bu qo'shimcha qariyb 10 million (talabalarning 21%) o'quvchini qamrab olganini alohida qayd etish lozim. OESR PISA-dagnostikasi esa moliyaviy savodxonlikni baholab, hukumatlarni moliyaviy ko'nikmalarni o'quv dasturlariga kiritishga rag'batlantirmogda.

O'zbekistonda esa 2017-yilda kattalarning taxminan 23% ida bank hisobi mavjud bo'lgan bo'lsa, islohotlar natijasida 2021-yilga kelib bu ko'rsatkich 44% ga yetdi. Shunga qaramay, ishonch darajasi pastligicha qolmogda. Global Findex ma'lumotlariga ko'ra, kattalarning atigi 3% i bankda jamg'arma saqlaydi. Bu esa Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng past ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Sababi shundaki, aholining asosiy qismi, ayniqsa qishloq joylarda va ayollar, norasmiy usullarga murojaat qiladi, ya'ni qoramol boqish, oltin sotib olish, valyuta jamg'arish yoki ko'chmas mulkni xarid qilishni afzal ko'radi. Bu holat aholi o'rtasida moliyaviy savodxonlik yetishmayotganini, ko'plab fuqarolarda shaxsiy budjetni rejalashtira olmaslik, moliya bozori mahsulotlari haqidagi xabardorlikning pastligi hamda kreditlash tamoyillari haqida yetarli bilim va ko'nikmalarning shakllanmaganligini ko'rsatadi.

Mazkur muammolarni hal qilish maqsadida O'zbekistonda qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son⁷ Farmoni bilan "Moliyaviy va investitsion savodxonlik" dasturi tasdiqlanib, moliyaviy ma'rifatni rivojlantirish bo'yicha aniq qadamlar belgilab berildi. Ushbu me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida umumta'lim maktablari va noiqtisodiy yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari uchun "Moliyaviy savodxonlik" fanini alohida predmet sifatida joriy etish, uni o'qitish metodikasini ishlab chiqish, o'quvchi-yoshlar o'rtasida tanlov va olimpiadalar tashkil etish orqali samaradorlikka erishish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, 2021-yil iyun oyida O'zbekiston Jahon banki va IFC ko'magida 2021–2023-yillarga mo'ljallangan Moliyaviy inklyuziya milliy strategiyasini (NFIS) qabul qildi. Strategiya beshta ustuvor yo'nalishni qamrab oldi: bazaviy moliyaviy xizmatlar, MSB moliyalashtirish, raqamli moliyaviy servislar, moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish va aholi moliyaviy savodxonligini oshirish. Bu orqali moliyaviy savodxonlik rasman davlat moliyaviy siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanganini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari, Markaziy bank tarkibida aholi moliyaviy savodxonligini oshirish departamenti tashkil etilgan bo'lib, u strategiyalar ishlab chiqish va amalga oshirish, turli yosh va ijtimoiy guruhlar uchun zamonaviy o'quv materiallarini tayyorlash, maxsus axborot-ta'lim veb-resursini yuritish hamda muntazam ma'rifiy tadbirlar o'tkazish vazifalarini bajarib kelmogda. 2020-yilda esa Finlit.uz veb-sayti ishga tushirildi. Unda shaxsiy budjet, bank xizmatlari, investitsiya, moliyaviy firibgarlikdan himoyalash kabi mavzularda interaktiv materiallar taqdim etilmogda. Shuningdek, o'quvchi-yoshlar uchun "Startlend", "Tratolend" kabi o'yinli raqamli modullar ishlab chiqilayotgani ushbu islohotlarning amaliy natijasini ko'rsatadi.

⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-5371091>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik siyosati faol bosqichga kirdi. Bu borada yetarlicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, mamlakatda aholining inflyatsiya, kredit foizlari, moliya bozorlari to'g'risida ma'lum tushunchaga ega bo'layotgani, tadbirkorlik va investitsiyalarga qiziqish ortib borayotgani ushbu jarayonlarning tasdig'idir.

Demak, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish murakkab va tizimli yondashuvni talab qiladi. Bunda O'zbekiston so'nggi yillarda ishlab chiqilgan strategiyalar (NFIS), institutsional qadamlar (Markaziy bank departamenti) hamda ta'lim tizimiga integratsiyani yanada samarali amalga oshirishi lozim. Shuningdek, KPI tizimi orqali samaradorlikni baholash zarur. Savodxonlik va inklyuziya uyg'unligini ta'minlash muhim bo'lib, bunda raqamli moliyaviy savodxonlikka alohida e'tibor qaratilishi kerak. Xususan, onlayn to'lovlar, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, fishingdan saqlanish kabi mavzularni qamrab oluvchi o'quv bloklarini yaratish hamda FinTech-ilovalarga o'quv modullarini integratsiya qilish orqali samarali foydalanishni yo'lga qo'yish talab etiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, moliyaviy savodli fuqaro – barqaror iqtisodiyotning poydevoridir. Robert Rubin ta'kidlaganidek, "qancha ko'p odam oqilona moliyaviy qaror qabul qilsa, shuncha barqaror iqtisodiyot va samarali siyosiy tizim ehtimoli yuqori". O'zbekiston uchun esa bu inson kapitaliga sarmoya bo'lib, bank resurs bazasi, tadbirkorlik, soliq intizomi va qarz xatarlarini kamaytirish kabi ko'plab kanallar orqali multiplikativ samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 13 апрель 2021 йилдаги "Капитал бозорини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ни ПФ-6207 сони фармони.
2. Вахабов А.В., Дусмухамедов О.С. (2022). Молиявий саводхонлик тушунчасининг назарий асосларини такомиллаштириш. – Иқтисод ва молия, №5(153), 21–30 б..
3. Назарова С. (2020). Молиявий саводхонлик асослари. – Дарслик. Тошкент.
4. Babasyan D., Melecky M., Podchoeva N. (2023). From livestock to lifelong savings: Improving financial inclusion in Uzbekistan. – World Bank Blog, 25.01.2023.
5. IFC (2021). Enhancing Financial Capability and Inclusion in Uzbekistan. – Таҳлилий ҳисобот.
6. FDIC & CFPB (2013). Money Smart for Older Adults: Prevent Financial Exploitation. – Дастур материаллари.
7. Deutsche Sparkassenstiftung (2016). Ўзбекистон аҳолисининг базавий молиявий саводхонлигини ошириш миллий стратегиясини ишлаб чиқиш. – Лойиҳа ҳисоботи (GIZ).
8. OECD (2013). OECD/INFE High-level Principles on National Strategies for Financial Education. – Тавсиялар.
9. Council for Economic Education (2024). Survey of the States. – Нью-Йорк: CEE.
10. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки. Молиявий саводхонликни ошириш департаменти (вазифалар); таълимий веб-сайт Finlit.uz.
11. Россия Ҳукумати (2017). 2017–2023 йиллар Стратегияси (№2039-р).
12. Россия Ҳукумати (2023). 2030 йилгача Стратегия (№2958-р).
13. UNDP India (2012). Financial Literacy as a Tool for Financial Inclusion and Client Protection. – Ҳисобот.
14. World Bank (2014). Uzbekistan - Financial Inclusion and Literacy Project. – Техник ҳисобот.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
